



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 416 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saïda</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmahanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
Gulmonova Guli Anvar qizi	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
Bozorova Muxlisa	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
Alimov Azim Anvarovich	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
Burtshova Aliya Burxonovna	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
Nazarova Vazira Bahron qizi	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
Shodmonova Munisa Furkatovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Jamoat transporti haydovchilarining psixoemotsional barqarorligini shakllantirishning nazariy-psixologik asoslari.....	369
Ruzimatova Gulbaxor Adiljanovna	
Игровые технологии как средство развития речевой активности детей с тяжёлыми нарушениями речи	375
Шакирова Ситора Абдугануровна	
Qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchi talabalarda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari.....	380
Jo'rayev Nodirbek Nutfillo o'g'li	
Ценностно-смысловой потенциал поэзии Анны Ахматовой в формировании языковой личности и духовно-нравственном становлении учащихся: методический аспект	385
Жабборова Гулчехра Жобировна	
Raqamli ta'lim sharoitida geoaxborot tizimlarini o'qitishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari...	391
Iskandarov Bayimbet Sobir o'g'li	
O'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish yo'nalishlari	395
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish	399
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	404
Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda kognitiv strategiyalardan foydalanish metodikasi	409
Sharopova Zarnigor Tolib qizi	

O'SMIRLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING MAZMUNI VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Maqolada o'smirlik davrida ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni, mohiyati va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Unda o'smir shaxsining ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishishi, mustaqil ijtimoiy pozitsiyasining shakllanishi hamda tengdoshlar, oila va ta'lim muhiti bilan munosabatlarining ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, mahalliy va MDH olimlarining ilmiy qarashlari hamda tadqiqotlari tahlili asosida o'smirlarning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlashtirilgan. Tadqiqot natijalari o'smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashda ijtimoiy muhit, tarbiyaviy ta'sirlar va shaxsning faol ishtiroki o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar, oila, tengdoshlar, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: The article theoretically analyzes the content, essence, and socio-pedagogical characteristics of the socialization process during adolescence. It examines adolescents' acquisition of social experience, their integration into the system of social relations, the formation of an independent social position, and the role of relationships with peers, family, and the educational environment in the socialization process. In addition, an analysis of the scientific views and research of local and foreign scholars is used to identify the main factors influencing adolescent socialization. The findings demonstrate that successful adolescent socialization largely depends on the harmonious interaction between the social environment, educational influences, and the individual's active participation in the system of social relations.

Key words: adolescence, socialization, social experience, social relations, social environment, socio-pedagogical characteristics, family, peers, personality development, social adaptation.

Аннотация: В статье теоретически анализируются содержание, сущность и социально-педагогические особенности процесса социализации в подростковом возрасте. Рассматриваются освоение подростком социального опыта, его включение в систему социальных отношений, формирование самостоятельной социальной позиции, а также роль взаимоотношений со сверстниками, семьей и образовательной средой в процессе социализации. Кроме того, на основе анализа научных взглядов и исследований отечественных и зарубежных ученых уточняются основные факторы, влияющие на социализацию подростков. Результаты исследования показывают, что успешная социализация подростков во многом зависит от гармоничного взаимодействия социальной среды, воспитательных воздействий и активного участия самой личности в системе социальных отношений.

Ключевые слова: подростковый возраст, социализация, социальный опыт, социальные отношения, социальная среда, социально-педагогические особенности, семья, сверстники, развитие личности, социальная адаптация.

KIRISH

O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash va ijtimoiy-ma'naviy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son¹ qarorida uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish vazifalari belgilangan^[1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PF-66-son² Farmoni bilan “Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasi doirasida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi ishtirokini kengaytirish va yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan vazifalar belgi-

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-8022994>

² <https://lex.uz/uz/docs/8155028>



langan. Mazkur yondashuv o'smirlarning ijtimoiylashuvini shaxs, ta'lim-tarbiya muhiti va jamiyat bilan o'zaro munosabatlar jarayonida o'rganish zaruratini kuchaytiradi ^[2].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-son³ Farmonida bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda tarbiyalash xizmatlarini rivojlantirishga oid vazifalar belgilangan. Bu esa o'smirlarning ijtimoiylashuvida oila, tarbiya va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'sirini hisobga olish muhimligini ko'rsatadi ^[3].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonini shaxsning jamiyatdagi munosabatlar tizimiga kirishishi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va mustaqil ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishi nuqtayi nazaridan tahlil qilish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'smirlik davri shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga faol kirib borishi, o'z ijtimoiy mavqeini anglashi va jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yor hamda qadriyatlarini o'zlashtirishi bilan tavsiflanadi. Shu bois o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoni psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri asosida kechadigan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlarning ijtimoiylashuvi mazmuni va mexanizmlari MDH olimlari tomonidan ham turli ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. G. M. Andreeva, A. V. Mudrik, R. M. Shamionov, V. D. Polejayeve, M. V. Polejayeve va D. I. Feldshteyn kabi olimlarning qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi.

A. V. Mudrik ijtimoiylashuvni insonning jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib borishi bilan bog'liq jarayon sifatida qaraydi. Olim ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi omillarni mega-, makro-, mezo- va mikro omillarga ajratib, shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy muhitlar va institutlarning o'zaro ta'siri natijasida amalga oshirishini ta'kidlaydi. U ijtimoiylashuvning taqlid, identifikatsiya va ekzistensial bosim kabi mexanizmlariga e'tibor qaratadi ^[4]. Mazkur yondashuv tadqiqotimizda o'smirlar ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillarni turli ijtimoiy muhitlar kesimida tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

G. M. Andreeva ijtimoiylashuvni ikki tomonlama jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, bir tomondan, individ ijtimoiy muhitga kirishish orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, ikkinchi tomondan esa, o'zining faol faoliyati orqali mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimini qayta ishlab, uni rivojlantirishda ishtirok etadi. Shu jihatdan ijtimoiylashuvni faqat jamiyat talablariga moslashish sifatida emas, balki shaxsning faol subyekt sifatida shakllanishi jarayoni sifatida baholash mumkin ^[5].

Ushbu qarash tadqiqotimizda o'smirni ijtimoiylashuv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni faol shakllantiruvchi subyekt sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu o'rinda D. I. Feldshteyn shaxsning ontogenezdagi rivojlanishini uning ijtimoiy munosabatlar va faoliyat tizimiga kirishishi bilan bog'laydi. Olimning bosqichma-bosqich ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasida shaxsning turli yosh davrlarida jamiyat bilan munosabatlari va ijtimoiy faoliyatining o'zgarishi muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuv o'smirlik davrini shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi, mustaqilligi va jamiyatdagi o'rnini anglash jarayoni kuchayadigan bosqich sifatida tahlil qilish imkonini beradi ^[6]. Umuman olganda, mazkur nazariy qarashlar o'smirlar ijtimoiylashuvini ijtimoiy muhit, faoliyat va munosabatlar birligi asosida o'rganish zarurligini ko'rsatib, tadqiqotimizning nazariy-metodologik asosini belgilashga xizmat qiladi.

L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvida esa shaxs rivojlanishi uning ijtimoiy muhit bilan munosabatlari va muayyan yosh davriga xos bo'lgan ijtimoiy rivojlanish vaziyati bilan bog'liq holda qaraladi. Mazkur yondashuv o'smirlarning ijtimoiylashuvini faqat individual psixologik o'zgarishlar emas, balki ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir jarayoni sifatida tahlil qilish imkonini beradi ^[7].

L. I. Bojovich o'smirlik davrida bolaning oiladagi ijtimoiy mavqei sezilarli darajada o'zgarishini, unga nisbatan yuqoriroq talablar qo'yilishini va, eng avvalo, mustaqillikka bo'lgan ehtiyojining kuchayishini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, aynan shu davrda o'smirning tengdoshlari bilan munosabatlari kengayib, jamoada o'z o'rnini topishga intilishi kuchayadi. Tengdoshlari tomonidan bildiriladigan talablar va shaxslararo munosabatlar o'smir shaxsining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi ^[8]. Mazkur qarash tadqiqotimizda o'smirlik davrida oiladagi ijtimoiy mavqe, mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj va tengdoshlar bilan munosabatlarning ijtimoiylashuvga ta'sirini yoritish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

V. D. Polejayeve hamda M. V. Polejayeve ijtimoiylashuvga quyidagicha ta'rif beradi: ijtimoiylashuv shaxsning shakllanish jarayoni bo'lib, uning davomida individ o'zining ijtimoiy roliga xos bo'lgan ko'nikmalar, xulq-atvor namunalari va ustanovkalarni o'zlashtiradi ^[9]. Mazkur jarayonni tashqi ta'sirlarning ichki o'zlashtirishga mexanik tarzda ko'chirilishi sifatida tushunmaslik lozim, chunki ijtimoiylashuv jarayonida inson o'z ijtimoiy muhitining qadriyatlarini qayta ishlab, ularni o'zining shaxsiy qadriyatlariga aylantiradi.

3 <https://lex.uz/uz/docs/-7777239>



Ijtimoiylashuv o'z-o'zidan yuzaga keladigan hamda maqsadli ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi holatda esa bu tarbiya bo'lib, u ijtimoiylashuvning o'zidan alohida jarayon sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv tadqiqotimizda o'smirlarning ijtimoiylashuvini xulq-atvor namunalari, ijtimoiy rollar va qadriyatlarining o'zlashtirilishi hamda shaxsiy qadriyatlarga aylanishi jarayoni sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

R. M. Shamionov ijtimoiylashuvni faqat ijtimoiy normalarni o'zlashtirish bilan chegaralamaydi. Uning yondashuvida shaxs ijtimoiy tajribani o'zlashtirish bilan birga, uni qayta ishlab, o'z shaxsiy tizimiga integratsiya qiladi va ijtimoiy munosabatlarda namoyon etadi. Olim ijtimoiylashuv jarayonining shaxsning subyekt sifatidagi faolligi bilan bog'liqligiga alohida e'tibor beradi^[10]. Mazkur yondashuv tadqiqotimizda o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonidagi faol subyekt sifatidagi rolini, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va uni shaxsiy tajribasiga aylantirish xususiyatlarini asoslashga xizmat qiladi.

Shaxsning o'zini, xulq-atvor xususiyatlarini va jamiyatdagi o'rnini qanday tasavvur qilishi asosida shakllangan obraz "Men" obrazi deb ataladi. Ushbu obrazning real hayotga qanchalik mos kelishi va adekvatligi shaxsning psixologik yetukligini ifodalovchi muhim mezonlardan biridir. "Men" obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u shaxsning o'zini anglashi, tarbiyalanishi va ijtimoiy muhitga moslashishida muhim rol o'ynaydi. "Men" obrazining ijobiy va salbiy shakllanishida shaxsni o'rab turgan muhit, atrofdagi insonlar va ularning unga bo'lgan munosabati katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda I. S. Kon o'smirlik va ilk yoshlik davrida o'zini anglash jarayonini shaxs rivojlanishining markaziy jihatlaridan biri sifatida ko'rib, "men" obrazining shakllanishi hamda shaxsning o'ziga munosabatining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratadi. Bu jarayon o'smirlarning o'z imkoniyatlarini baholashi, ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini anglashi va mustaqil pozitsiyasini shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirib, o'smirlarning ijtimoiylashuvini ijtimoiy tajriba, me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, ijtimoiy munosabatlar va rollarni egallash, o'zini anglash hamda mustaqil ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish jarayoni sifatida talqin qilish mumkin. Uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari o'smirlarning faol subyekt sifatidagi mavqei, mustaqillikka intilishi, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlari, shuningdek, oila, ta'lim va raqamli muhitning ta'siri bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning ijtimoiylashuvi, o'smirlik davrida shaxs rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga oid psixologik hamda pedagogik yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni, unga ta'sir etuvchi ijtimoiy muhit, oila, tengdoshlar va ta'lim muassasasining o'rnini hamda ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda A. V. Mudrik, G. M. Andreeva, D. I. Feldshteyn, L. I. Bojovich, V. D. Polejayeve, M. V. Polejayeve va R. M. Shamionov kabi olimlarning ijtimoiylashuvga oid ilmiy qarashlari nazariy manba sifatida o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, bizningcha, o'smirlarning ijtimoiylashuvi – shaxsning oila, tengdoshlar, ta'lim va boshqa ijtimoiy muhitlar bilan o'zaro munosabati jarayonida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, rollar va xulq-atvor namunalari o'zlashtirilishi, ularni shaxsiy tajribasi asosida qayta ishlashi hamda mustaqil ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish jarayonidir. Bunda o'smirlarning ijtimoiylashuvi faqat tashqi muhitga moslashish emas, balki mavjud ijtimoiy tajribani faol o'zlashtirish, baholash va amaliy faoliyatda namoyon etish bilan tavsiflanadi. Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda, o'smirlarning ijtimoiylashuvining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini quyidagi jihatlar orqali umumlashtirish mumkin:

1. Ijtimoiy muhitga faol kirishish va ijtimoiy tajribani o'zlashtirish.
2. Oila va ota-ona tarbiyasining ta'siri.
3. Tengdoshlar guruhi bilan munosabatlarning kuchayishi.
4. Ta'lim muassasasi va pedagogik muhitning ta'siri.
5. Mustaqillik, mas'uliyat va o'zini boshqarishning rivojlanishi.

Zamonaviy raqamli muhit ta'sirida ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarining yuzaga kelishi.

Shu bilan birga, o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoni barcha oilalarda bir xil sharoitda kechmaydi. Oiladagi emotsional muhit, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, tarbiya uslubi, muloqot xarakteri hamda oilada mavjud nizolarning davomiyligi va intensivligi uning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, doimiy nizolar hukm suradigan oilada o'smir ijtimoiy munosabatlarni kuzatish va o'zlashtirish jarayonida ziddiyatli xulq-atvor namunalari, emotsional beqarorlik, ishonchsizlik yoki muloqotdagi qiyinchiliklarga



duch kelishi ehtimoli ortadi. Shu sababli o'smirlarning ijtimoiylashuvini o'rganishda oilaning nafaqat mavjudligi, balki uning ijtimoiy-psixologik sifati ham muhim tadqiqot omili sifatida qaralishi lozim.

O'smir ijtimoiylashuvini faqat unga ta'sir etuvchi omillar yig'indisi sifatida emas, balki xavf va himoya omillarining o'zaro ta'siri sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Oilada doimiy nizolar, emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, avtoritar yoki befarq tarbiya, tengdoshlar tomonidan rad etilish kabi holatlar ijtimoiylashuv uchun xavf omillari bo'lsa, ota-onaning qo'llab-quvvatlashi, ijobiy pedagogik muhit, sog'lom tengdoshlar munosabatlari, o'zini boshqarish va stressni yengish ko'nikmalari himoya omillari sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Shuningdek, o'smirning ijtimoiylashuv jarayonida uning oilada va jamiyatda egallaydigan gender rollari hamda ushbu rollarga nisbatan shakllangan tasavvurlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, nizoli oilada ota-ona o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy rollarning taqsimlanishi, erkaklik va ayollik haqidagi qarashlar hamda tarbiyadagi genderga xos kutilmalar o'smirning o'zini anglashiga, xulq-atvoriga va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, nizoli oilada ulg'ayayotgan o'smirlarning ijtimoiylashuvini faqat umumiy ijtimoiy-pedagogik omillar asosida emas, balki gender omilini hisobga olgan holda o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonini chuqurroq anglash maqsadida mahalliy tadqiqotchilarning ushbu yosh davriga oid ilmiy izlanishlari tahlil qilindi. Jumladan, F. F. Ganjiyev, F. F. Sattarov, S. A. Ikromova va yana bir mahalliy tadqiqotchining avtoreferatida o'smir shaxsining rivojlanishi, uning ijtimoiy muhit bilan munosabati hamda xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar turli jihatlardan o'rganilgan.

F. F. Ganjiyev tadqiqotida agressiv o'smirlarning jamiyatga moslashuvi va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar o'rganilgan. Tadqiqot natijalari o'smirning jamiyatga moslashuvi uning atrofidagi ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlari va xulq-atvor xususiyatlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bu holat o'smirlar ijtimoiylashuvini faqat ijtimoiy tajribani o'zlashtirish emas, balki jamiyatdagi mavjud munosabatlarga moslashish va ularda faol ishtirok etish jarayoni sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi ^[11].

F. F. Sattarov o'smir xulq-atvorining ijtimoiy determinantlarini tadqiq etib, uning shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy muhit, oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik kabi omillarning ahamiyatini asoslagan. Tadqiqotda aniqlangan tajovuzkorlik, emotsional beqarorlik, ijtimoiy-madaniy muhitga moslasha olmaslik kabi holatlar o'smirning ijtimoiylashuv jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Demak, o'smirning ijtimoiylashuvi uchun uning atrofidagi ijtimoiy muhitning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyati muhim ahamiyatga ega ^[12].

S. A. Ikromovning 420 nafar o'smir ishtirokidagi tadqiqotida destruktiv axborotlarning o'smir shaxsiga ta'siri, internet va boshqa axborot vositalariga qaramlik, psixologik himoya mexanizmlari hamda subyektiv nazorat lokusi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari o'smirlarning ijtimoiylashuvi zamonaviy axborot muhiti bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, destruktiv axborot ta'siriga qarshi psixologik barqarorlikni shakllantirish o'smirning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi ^[13].

XULOSA

Ushbu tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, mahalliy olimlarning izlanishlarida o'smirlarning ijtimoiylashuvi turli nuqtayi nazarlardan – jamiyatga moslashuv, xulq-atvorning ijtimoiy determinantlari, axborot muhitining ta'siri va shaxsning psixologik xususiyatlari orqali yoritilgan.

Bizningcha, mazkur yondashuvlarni birlashtirgan holda o'smirlarning ijtimoiylashuvini shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, ijtimoiy muhitga moslashishi, mavjud munosabatlarda faol ishtirok etishi va o'z xulq-atvorini mustaqil boshqarishi bilan kechadigan kompleks jarayon sifatida qarash mumkin. Bu esa o'smirlar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini o'rganishda oila, tengdoshlar, ta'lim muhiti va zamonaviy axborot makonining o'zaro ta'sirini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-8022994>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PF-66-son "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/8155028>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-185-son "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7777239>
4. Мудрик А. В. Социальная педагогика : учебник для студентов педагогических вузов / под ред. В. А. Сластенина. – 8-е изд., испр. и доп. – М. : Издательский центр "Академия", 2013. – 240 с.
5. Андреева Г. М. Социальная психология : учебник для высших учебных заведений. – М. : Аспект Пресс, 2001. – 384 с.



6. Фельдштейн Д. И. Психология развития личности в онтогенезе. – М. : Педагогика, 1989. – 208 с.
7. Выготский Л. С. Проблема возраста // Собрание сочинений : в 6 т. Т. 4. – М. : Педагогика, 1984. – С. 244–268.
8. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М. : Просвещение, 1968. – 464 с.
9. Полежаев В. Д., Полежаева М. В. Определение значимости факторов и механизмов социализации личности на основе теории измерения латентных переменных. – С. 1–9.
10. Шамионов Р. М. Социализация личности в контексте со-бытия с Другими // Социальная психология и общество. – 2012. – Т. 3, № 4. – С. 5–14.
11. Ganjiyev F. F. Globallashuv davrida agressiv o'smirlar jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik determinantlari : psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 71 b.
12. Sattarov F. F. Zamonaviy jamiyatda o'smir xulq-atvorining ijtimoiy determinantlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil) : falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – 52 b.
13. Ikromova S. A. O'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari : psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – 52 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.